

Obektlarni foydalanishga tayyor holda qurishga doir pudrat shartnomasi

2022 y. «14» 6

2022-58-3-44-OB-son

O' smat shaxarchasi

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Baxmal tuman Obodlashtirish boshqarmasi (buyurtmachining nomi) nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi (ustav, nizom, ishonchнома) **Abdullaev Mingboy Suyunovich** bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **«NAVRO'Z QURILISH TA'MIR MONTAJ» MCHJ** nomidan Nizom (ustav, nizom, ishonchнома) asosida ish ko'ruvchi **Shukurov Akmal Burxonovich** ikkinchi tomondan **Nushkent MFY Mo'labuloq qishlog'i ichki xo'jalik yo'llarni joriy ta'mirlash** obektni foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. Ta'riflar

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:
ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomondan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda obekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomondan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi.

Obektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaqa muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomondan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniqlash uchun qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Nushkent MFY Mo'labuloq qishlog'i ichki xo'jalik yo'llarni joriy ta'mirlash** bo'yicha smeta loyihasida ko'zda tutilgan ishni foydalanishga tayyor holda tamirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomondan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (**06.06.2022 yildagi 96343-son bayonnoma**) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **570 970 000 (Besh yuz etmish million to'qqiz yuz etmish ming)** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomondan o'zgartirilganda;

obektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarini aniqlashirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatlari

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga ilova qilingan smeta hujjatlariga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirishi;

Smeta hujjatlariga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'qzilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

mazkur shartnoma bo'yicha obektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab **o'n kun muddatda** qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalarini, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish, qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomondan zarur tarzda bajarilishi hamda obektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining majburiyatlari

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini obekt qurilishi va qurilish tugallangach bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomondan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini **besh kun muddatda** ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

moliylashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga shartnomaga muvofiq avans berish va joriy moliylashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab **ikki kun davomida** Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddatlari

10. Shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

11. Pudratchi birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran **30 kuni**ni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

14. Buyurtmachi Pudaratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi.

15. Obektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 70 foizi uchun Buyurtmachi va Pudaratchi o'rtasidagi usul-kesil hisob-kitob qurilish tugallanganidan keyin va obekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin 30 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

16. Pudaratchi obekt foydalanishiga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha obektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Obekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar obektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudaratchining zimmasida bo'ladi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarini shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarilmagan taqdirda, Pudaratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudaratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. Ishlarni bajarish

18. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini — texnik auditori tayinlaydi, u Buyurtmachingan nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudaratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalar shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

19. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liq tanishish huquqiga egadir.

20. Pudaratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudaratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarini amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

21. Pudaratchi ishlarini bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashirilgan o'z rejasini va jadvaliga binoan obektda ishlarini bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

22. Qurilish maydonida ishlarini bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangindan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudaratchi amalga oshiradi.

23. Pudaratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spesifikasiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifati tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlariga ega bo'lishini kafolatlaydi.

24. Agar Buyurtmachi Pudaratchi va (yoki) uning subpudaratchilari tomonidan ishlarining sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudaratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarini ularning zarur sifati ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudaratchi sifatsiz bajarilgan ishlarini kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudaratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

25. Pudaratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polossasini, shu jumladan yo'l uchashtalari va yo'llaklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatlari Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

IX. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

26. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga kelgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

27. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudaratchi va Buyurtmachi ishlarini davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

28. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

X. Qurilish tugallangan obektni qabul qilib olish

29. Qurilish tugallangan obektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilish tugallangan obektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

30. Obektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudaratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 5 ish kuni mobaynida qabul qilib olinadi.

31. Qabul qilib olingan paydan boshlab obekt Buyurtmachingan mulkiga aylanadi.

XI. Kafolalar

32. Pudaratchi:

barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yori, qoidalarini va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarini bajarish sifati;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifati, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini;

ishlarini qabul qilish va obektdan foydalanishning kafolati davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsanlarni o'z vaqtida bartaraf qilishini; obektdan foydalanilgan muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

33. Obekt bo'yicha bajarilgan ishlarining kafolati muddati tomonlar qurilishi tugallangan obektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 1 yil etib belgilanadi.

34. Agar obektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsanlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsanlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi.

Nuqsanlar Pudaratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsanlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudaratchi va Buyurtmachingan ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudaratchi bajarilgan ishlardagi nuqsanlar va chala ishlarini, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur kamchiliklar qiymatida jarima undirib olishga haqli.

XII. Shartnomani bekor qilish

35. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudaratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda, ishlarini tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudaratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudaratchi tomonidan ishlarini bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudaratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yori va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarining sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

36. Pudaratchi:

ishlarining bajarilishi Pudaratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachi beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararini, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIII. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinci tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

42. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachi shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

43. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh torganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh torgan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

44. Pudratchi obektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi obekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagan uchun Pudratchi buyurtmachi muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchi ishlarini bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

45. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur muddatda nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalangan penya bilan qoplamagan zararlarni qoplaydi.

46. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarining boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

XIV. Tomonlarning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha majburiyatlarini.

47. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalar, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-birlariga yoki davlat ishritokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

48. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish

maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga va murojaatni olgan tomon 10 (un) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

49. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xaf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalda oshirgan choralari korrupsion xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

49. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va tarafdar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

XV. Nizolarni hal etish tartibi

50. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda **Iqtisodiy sud** tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alohida shartlar

51. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

52. Pudratchi qurilish obektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmaching yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchunchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

53. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.



54. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqqan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlash kerak.

55. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqli.

56. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlarini normalari qo'llaniladi.

57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

Buyurtmachi	Pudratchi:
<p>Baxmal tuman bodonlashtirish boshqarmasi</p> <p>O'smat shaxarchasi Samarqand ko'chasi</p> <p>SHXV 40172286008204706540010001</p> <p>INN 201 029502 OKONX 90211</p> <p>O'ZB.Res.Moliya vazirligi YaXV 2340 2000 3001 0000 1010</p> <p>Markaziy bank Toshkent shaxri XKKM INN FO 00014</p> <p>Raxbar M.Abdullaev</p> 	<p>“NAVRO'Z QURILISH TA'MIR MONTAJ” MCHJ</p> <p>Jizzax viloyati Jizzah shaxri</p> <p>X/r 2020 8000 9051 6398 3001</p> <p>Jizzax sh. ATB qishloq qurilish bankining Jizzax mintaqaviy filiali</p> <p>INN 307 035 378 MFO - 00139</p> <p>Raxbar A.Shukurov</p> 

**RQ46120785 -sonli YURIDIK AHAMIYATGA EGA
HUJJATNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Nushkent MFY Mo'labuloq qishlog'i ichki xo'jalik yo'llarni joriy ta'mirlash haqida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Baxmal tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni rasmiylashtirish maqsadga muvofiq.



Markaz bosh yuriskonsulti

X.Mamatqulov

2022-yil 14-iyun

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 96343 на приобретение Текущий ремонт внутренних дорог села Моллабулак, СХГ «Нушкет», Бахмальского района, Джизакской области

Способ проведения **электронный**

Дата 06.06.2022

Время рассмотрения 06.06.2022 20:22

Конкурсная комиссия Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH	Raxbar	Vaxtal TOB
Секретарь комиссии	MUXTOROV XAMDAM XOLIQULOVICH	Bosh xisobchi	Vaxtal TOB
Член комиссии	SULTANOV RUSTAM SHAMSIDDINOVICH	Obodonlashtrish obyektlarini saqlash birlimi boshlig'i	Vaxtal TOB
Член комиссии	KO'LIYEV NURIDDIN IBRAGIMOVICH	Bosh muxandis	Vaxtal TOB
Член комиссии	ATAMUROTOV BERDI ABDUROXOMONOVICH	Texnik nazoratchi	Vaxtal TOB
Член комиссии	NARMATOV AZAMAT XAZRATQULOVICH	Infotuzilma obyektlarini saqlash birlimi boshlig'i	Vaxtal TOB

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 06.06.2022 года № лота 96343.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 95.00 / Весовой коэф. Ценовой части: 5.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по ремонту и содержанию автомобильных дорог
Подробное описание	Текущий ремонт внутренних дорог села Моллабулак, СХГ «Нушкет», Бахмальского района, Джизакской области
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	582 970 196.00
Стартовая сумма	582 970 196.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Список машин и механизмов

Тип: Текстовое значение

Описание: Для реализации проекта необходимо наличие не менее пяти собственных (или арендованных) строительных машин и оборудования, изготовленных более 20 лет назад. Наличие средств малой механизации, необходимых для выполнения проекта и других объектов

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NAVRO'Z QURILISH TA'MIR MONTAJ MCHJ	25	Махсус техника хужжати бириктирилди	16	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	25	25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlar tizimini yanada takomillashtrish va tadqiqotlik sub'ektlarini davlat xaridlari jaryomiga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar tova qilimmoqda	16	Экспертная		

Критерий №2 Общая информация о конкурсентке

Тип: Текстовое значение

Описание: Общие сведения об организации, участвующей в конкурсе, наличии одного из руководителей обязательно с высшим образованием по специальности строительство, стажем работы не менее одного года на автомобильных дорогах и мостах. Наличие инженерно-технических работников не менее чем с двумя дипломами и опытом работы от пяти лет. (начальники секций и мастера). Наличие одного дипломированного специалиста с пять летним стажем работы в отделе организации производства. Список квалифицированных рабочих, работающих полный рабочий день.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NAVRO'Z QURILISH TA'MIR MONTAJ MCHJ	25	Ишчи ходимлар руйхати, паспорт ва диплом хужжатлари .	21	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	25	25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlar tizimini yanada takomillashtrish va tadqiqotlik sub'ektlarini davlat xaridlari jaryomiga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar tova qilimmoqda	15	Экспертная		

Критерий №3 Финансовое состояние конкурсанта

Тип: Текстовое значение

Описание: «Сведения об отсутствии картотеки из банка участника, сведения об отсутствии недоимки по налогам в налоговых органах, об отсутствии просроченной кредиторской задолженности на сумму 100 млн. сум и более, прибыли в размере 20 млн. сум в прошлом году (до налога). Фонд заработной платы 20 млн.сум Коэффициент платежеспособности или покрытия 1,25 и более Коэффициент платежеспособности или покрытия Наличие оборотных средств в размере до 20% от начальной цены, установленной заказчиком

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NAVRO'Z QURILISH TA'MIR	25	Молиявий холатини кўрсаткичлари	18	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MONTAJ MCHJ		хужжати киритилди				
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	25	25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori (PO-4544 asosida 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinganida	16	Экспертная		

Критерий №4 Опыт работы за последние три года на объектах, аналогичных выбранному объекту

Тип: Текстовое значение

Описание: Выполнение аналогичных работ по Конкурсу своими силами за последние три года: N (N-Заказчик 50% от стартовой цены) сум и более в год. Конкурс должен быть завершен самостоятельно в течение последнего года по профилю, аналогичному торговому, и другим документам.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
NAVRO'Z QURILISH TA'MIR MONTAJ MCHJ	25	Бажарилган ишлар рўхати ва хужжатлари киритилди	20	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	25	25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori (PO-4544 asosida 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinganida	20	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	582 970 196.00	574 970 196.00	06.06.2022 17:43:01	4.97
NAVRO'Z QURILISH TA'MIR MONTAJ MCHJ	582 970 196.00	570 970 000.00	06.06.2022 15:30:55	5.00

Итоговая оценка участников включая финансовую части составила:

Наименование участника	Общий балл по Технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	63.65	4.96521	68.61521
NAVRO'Z QURILISH TA'MIR MONTAJ MCHJ	71.25	5	76.25

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 96343 от 06.06.2022 года на приобретение Текущий ремонт внутренних дорог села Моллабулак, СХТ «Нушкет», Бахмальского района, Джиззакской области определила победителем: NAVRO'Z QURILISH TA'MIR MONTAJ MCHJ

и резервный исполнитель: MANSUR STROY HOUSES MCHJ (306867894)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	KO'LIYEV NURIDDIN IBRAGIMOVICH	Согласен	
Член комиссии	ATAMUROTOV BERDI ABDUROXMONOVICH	Согласен	
Председатель комиссии	ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH	Согласен	
Член комиссии	SULTANOV RUSTAM SHAMSIDDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	NARMATOV AZAMAT XAZRATQULOVIICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Бахмал тумани Ободонлаштириш
бошқармаси бошлиғи
М.Абдуллаев
«09» июн 2022 йил

Бахмал тумани Ободонлаштириш бошқармасига қаршли openbudget маблағлари хисобидан лойиха смета хужжатлари асосида Нушкент МФЙ Мўллабулоқ қишлоғи ички хўжалик йўлларни жорий таъмирлаш учун танлов ўтказиш комиссиясининг

МАЖЛИС БАЁННОМАСИ № 4

2022 йил «09» июн


Ўсмаг шаҳарчаси

Кун тартиби:

Ахборот парталига жойлаштирилган эълон тўғрисида маълумот

1. Эълон берилган сана: **30.05.2022 йил**
2. Берилган эълон тартиб рақами: **22110012096343**
3. Бюртма предмети: **Бахмал тумани Ободонлаштириш бошқармасига қаршли Нушкент МФЙ Мўллабулоқ қишлоғи ички хўжалик йўлларни жорий таъмирлаш**
4. Ўлчов бирлиги: **Обект**
5. Бирлик нархи: **Сум**
6. Берилган миқдори: **1**
7. Эълон берилиш нархи: **582 970 196**

Бахмал тумани Ободонлаштириш бошқармасига қаршли Кўрғонча 2 қабристонини жорий таъмирлаш ишлари бўйича 2 кун мобайнида комиссия аъзоларига ва Бахмал тумани Ободонлаштириш бошқармасига ҳеч қандай шикоят ва этирозлар келиб тушмади «NAVRO'Z QURILISH TA'MIR MONTAJ» МЧЖ томонидан Бахмал тумани Ободонлаштириш бошқармасига қаршли Нушкент МФЙ Мўллабулоқ қишлоғи ички хўжалик йўлларни жорий таъмирлаш бўйича тақдим этилган таклифни энг мақул ва мақсадга мувофиқ деб топилган ва бу талабгор танлов ғолиби деб топилган.



М.Абдуллаев

Н.Кулиев

А.Нарматов

Р.Султонов

Б.Атамуродов